

## **"AVESTO "DA: IJTIMOIY ISH OBYEKTI BO'LGAN OILA HAMDA UNDAGI FARZANDLAR TARBIYASI HAQIDA.**

*Qo'ziyeva Mohlaroyim Ibroximjon qizi*

*SamDU Kattaqo 'rg'on filiali talabasi*

*Toshboyeva Dilfuza Rashid qizi*

*SamDU Kattaqo 'rg'on filiali talabasi*

*Ilmiy rahbar: SamDU Kattaqo 'rg'on filiali*

*Raqamli texnologiyalar va iqtisodiyot kafedrasи*

*assistenti **Jahongir Toshniyozovich Ibragimov***

*e-mail: [Jahongir.5066@gmail.com](mailto:Jahongir.5066@gmail.com)*

**ANNOTATSIYA :** Ushbu maqolada Zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avestoda" "Oila masalasiga, oiladagi farzandlarning tarbiyasi, ularni milliy tarbiya asoslarida tarbiyalash muhim va dolzarb vazifaligiga oid masalalar mavjud ekanligi zamonaviy nuqtai nazardan tahlil qilingan.

**KALIT SO'ZLAR :** Zardushtiylik, Avesto, oila, nikoh, oilaviy munosabat, farzand, globallashuv, milliy tarbiya, an'ana, urf-odatlar, marosim, ijtimoiy vazifa, axloq, adolatsizlik, qonun, jazo.

**"AVESTOD: ABOUT THE FAMILY AS AN OBJECT OF SOCIAL WORK AND THE EDUCATION OF CHILDREN IN IT**

**ABSTRACT :** In this article, it is analyzed from a modern point of view that the holy book of Zoroastrianism "Avesta" contains issues related to the family, children in the family, and the fact that their upbringing on the basis of national education is an important and urgent task.

**KEYWORDS** :Zoroastrianism, Avesta, family, marriage, family relationship, child, globalization, national education, tradition, customs, ceremony, social duty, morality, injustice, law, punishment.

## «АВЕСТОД: О СЕМЬЕ КАК ОБЪЕКТЕ СОЦИАЛЬНОЙ РАБОТЫ И ОБРАЗОВАНИИ В НЕЙ ДЕТЕЙ

**АННОТАЦИЯ** :В данной статье с современной точки зрения анализируется, что священная книга зороастризма «Авеста» содержит вопросы, связанные с семьей, детьми в семье, а также то, что их воспитание на основе национального образования является важным и неотложной задача.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА** :Зороастризм, Авеста, семья, брак, семейные отношения, ребенок, глобализация, национальное воспитание, традиция, обычаи, обряд, социальный долг, мораль, несправедливость, закон, наказание.

Kirish: O‘zbeklarda oilalarning muayyan turmush tarzi shakllanib hayotiy tajriba orttirib borishi, tejamkor, orasta va sarishta ro‘zg‘or tutishi, farzandlarining odobli, ma’naviy yetuk bo‘lib kamol topishida keksalar, ota-onaning roli katta. Ko‘hna Sharq tarixi haqida ma'lumot beruvchi eng qadimiy manbalardan biri bo‘lgan "Avesto" da ham oila, uning o'rni, unda farzandlar tarbiyasi, kelajagi, ayollar, xotin qizlarga bo‘lgan munosabat, oilaning mustahkamligi borasida qimmatli ma'lumotlar mavjud.

Asosiy qism: Oila — nikoh yoki tug‘ishganlikka asoslangan kichik guruh. Oilaning eng muhim ijtimoiy vazifalari — inson zotini davom ettirishdan, bolalarni tarbiyalashdan, oila a’zolarining turmush sharoitini va bo‘sh vaqtini samarali uyuştirishdan iboratdir. Oilaviy munosabatlar nisbatan mustaqil hodisa sanalsa-da, jamiyatdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy munosabatlar bilan belgilanadi va ular ta’sirida o‘zgarib boradi. Oila o‘z farzandlarini tarbiyalab, ularga umuminsoniy qadriyatlarni singdirish bilan ularga boshlang‘ich ijtimoiy yo‘nalish beradi. O‘z farzandlarini katta oqimga — jamiyatga qo‘sish bilan esa oila jamiyat yo‘nalishi, iqtisodiyoti, madaniyati va ma’rifatini ham belgilashga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Shuning uchun ham Sharqda oila

qadim-qadimdan muqaddas qo‘rg‘on hisoblanib kelingan. Shunga muvofiq, har bir jamiyat o‘zgarib mos oila tipini, oilaviy munosabatlarni o‘rnatadi.Oila xalqning, jamiyatning hayoti, turmushiga oid urf-odatlarni o‘zida sinovdan o‘tkazadi. Bugungi kunda globallashuv jarayonining ijobiy xususiyatlari bilan birga salbiy xususiyatlarini ham namoyon bo'lmoqdaki, milliylik kundan kunga shaffolashib, milliy tarbiya asoslariga putur yetmoqda. Bu o‘z navbatida insoniyat oldiga tarbiya masalasida kechiktirib bo‘lmas vazifalarni qo‘ymoqda. Qadimda ota-bobolarimizning oila va nikohga bo‘lgan munosabatini o‘rganishda xalqimizning asosiy e’tiqod shakli bo‘lib kelgan zardushtiylik dinining muqaddas kitobi Avestoga murojat qilamiz. Ushbu mavzuni tadqiq qilishdan maqsad ming yillar davomida o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan oila va nikoh munosabatlarini o‘rganish va bugungi kunda uning ahamiyatini tahlil qilishdan iborat. Dinning muqaddas manbasi borasida birinchi prezidentimiz "Avesto ayni paytda bu qadim o‘lkada buyuk davlat, buyuk ma’naviyat, buyuk madaniyat bo‘lganidan dalolat beruvchi buyuk hujjatdirki, uni hech kim inlkor etolmaydi" -degan edilar. Birgina Avestoning Videvdat qismi zardushtiylik dinida axloqning naqadar qadrlaganligining isboti sifatida keltirishimiz mumkin. Mazkur qism devlarga qarshi duolardan tarkib topgan bo‘lib, oddiygina qilib aytadigan bo‘lsak, insonlar orasida nopolik, yomonlik, adolatsizlik, dangosalik urug‘ini yo‘qotishga qaratilganligini ko‘rishimiz mumkin. "Avesto"da oila mustahkamligini saqlash, nikoh tartiblari, er-xotin majburiyati, nikoh tuzish va bekor qilishning qonun-qoidalari ko‘rsatib o‘tilgan. Avestoning maxsus boblarida Axura Mazda va Zardushtning yigit qizlarga nikoh masalasidagi murojatlari keltirilgan. Unda oila qurish, jufti halol tanlashda shoshma-shosharlikga yo‘l qo‘ymaslik, ota-on, keksalar maslahatiga qulqoq tutish kabi maslahatlar haqida qimmatli mulohazalar mavjud. Qadimgi turkiy xalqlarda oilaviy masalalarda yoshlar keksa avlod o‘gitlariga qulqoq solganlar. Zardo’shtiylik tartib-qoidalari ko‘ra, o‘z hayotini oila qurmasdan o‘tkazish qattiq qoralangan. Qiz bolalar uchun balog‘at yoshi 15 yosh hisoblangan. Balog‘at yoshidagi qiz ota-on yoki jamoa ra'yidan yurmay turmushga chiqishni, surriyot qoldirishni istamasdan umrguzaronlik qilib yursa qopga solinib 25 darra kaltaklangan.

Erkaklar esa, o'n yetti yoshda uylanish huquqiga ega bo'lgan. Agar erkak kishi surriyod qoldirish qobiliyatiga ega bo'lsa-yu, ammo uylanmasa, unga tamg'a bosilib, badnom qilish maqsadida beliga zanjir bog'lab yurishga majbur etilgan va uyaltirilagan. Islomda oila qurish sunnat hisoblangani kabi Zardushtiylikda ham nasl qoldirish, o'z urug'ini va qavmini ko'paytirish rag'batlantirilagan. "Aveto"da qayd etilishicha, erkak kishi, eng avvalo, uylanish uchun moddiy va ma'naviy tomondan to'q va baquvvat bo'lmog'l lozim, buning uchun o'z vaqtida to'yib ovqatlanishi zarur, aks holda erkak kishi o'z xizmati va axloqiy burchlarini bajara olmaydi. Zardo'shiylikda oila muqaddas sanalgani bois ig'vo, tuhmat, er-xotinning o'zaro kelishmovchiligi, ota-onalar bilan murosa-madora qila olmaslik kabi bahonalar bilan nikohning bekor qilinishiga yo'l qo'yilmagan. Zardushtiykik dini bilan bog'liq barcha marosim va odatlar zamirida noplilikga va yovuzlikga qarshi kurash g'oyasi mavjud bo'lib, mehnatsevarlik va bunyodkorlikni, adolat, erkinlik ham yuksak darajada ulug'langan hamda rag'batlantirilgan. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2018-yildagi Inson huquqlari bo'yicha Osiyo forumi ishtiroychilariga yo'llagan murojaat matnida aynan Avestodagi adolat, insonning huquqi, erkinligi borasida quyidagi fikrlarni bayon etadi "Masalan, bundan 2700 yil muqaddam Osiyo hududida yaratilgan eng ko'hna yozma yodgorlik - "Avesto" kitobida inson huquq va erkinliklari, millatlararo munosabatlarni o'zaro hurmat va ishonch tamoyillari negizida barpo etish g'oyalari muhim o'rinn tutadi, zo'ravonlik va adolatsizlik rad etiladi."

Bundan tashqari Zardushtiylik dinida ham oila qurish jamoa, ota-onalar izmida bo'lgan va ular jamoa maslahati bilan bo'lajak kelin va kuyovni tanlashda obdon o'ylab ish ko'rishgan. Bugungi oila qonunchiligidan nikoh tuzishga monelik qiladiga holatlardan biri sifatida qaralgan nasl-nasab shajarasi bo'yicha to'g'ri tutashgan qarindoshlar nikoh tuzilishiga yo'l qo'yilmaydigan ta'qiq o'sha davrda Avesto qonunlarida ham mavjud bo'lgan. Ya'ni yaqin qarindoshlar va o'zga dindorlar bilan oila qurish qat'iyan man etilgan. Kimki bu qonunni buzsa, o'lim jazosiga mahkum etilgan. Bolalarning sog'lom tug'ilishi, ularda hech qanday nuqson bo'lmasligiga katta ahamiyat berilgan.uqtirilgan.

Farzandlarning huquqiy maqomiga alohida e'tibor berilgan. Hozirgi kunda muhtoj oilalarga, ko'p bolali ayollarga ijtimoiy yordam sifatida beriladigan imtiyozlar qadim davrda Avestoda ham mavjud bo'lgan. Ikki-uchtadan farzand tuqqan ayollarga imtiyozlar berilib, sigir yoki sariq tuya bilan mukofotlangan. Ko'p bolali ayollarga davlat xazinasidan nafaqa tayinlangan. Shuningdek, ayol yoki oila boshlig'i hisoblangan erkak farzandlarini o'z holiga tashlab qo'yib, sarson-sargardon qilsa, bunday qilganliklari uchun qamchin va darra bilan kaltaklangan, hatto o'lim jazosi ham qo'llanilgan. Zardushtiylik ta'limotida bolalarning ta'lim tarbiyasiga alohida e'tibor berilgan. "Tarbiya hayotning eng muhim tayanchi bo'lib hisoblanishi lozim deb qaralgan" Zardushtning o'zi ham bolalar ruhiyatiga rost so'z, pok aqida, halol niyatni singdiradigan ustoz muallimlar peshvosi sifatida madh etilgan. Bolalarga diniy tarbiya berish ularning yetti yoshida boshlangan. Jamiyatda har tomonlama yetuk shaxslarni yetishtirish uchun ularga ko'plab hunarlar o'rgatilgan. O'g'il bolalarga o'ttiz ikki xil harbiy hunar o'rgatilgan. Qiz bolalar ip yigirish, liboslar tikish,o'g'il bola bilan kurash tushish, chavandozlik, qilichbozlik, suvda suzish, kamondan o'quzatish kabi jismoniy- harbiy malakalarни egallashi majburiy bo'lgan. Avestodagi qizlarga yuklatilgan bunday majburiyatlar qizlarni jasur va matonatli qilib tarbiyalashga qaratilgan.

Xulosa: Bu qadimi manbadan ham oilaning naqadar muqaddas sanalganligini ko'rishimiz mumkin. Qadim davrdan shakllangan oilaviy munosabatlardagi ko'pgina unsurlar bugun ham mavjud, ular hech qachon o'lmaydi,unutilmaydi, eskirmaydi. Hamisha insonlarni ezgulikka chorlovchi Zardushtiylik dinidagi axloqiy qoidalar asrlar o'tsa ham xalqlarning urf-odatlariga, madaniyatlariga singib boraveradi. Biz bugungi kunda oilalarimizning bardavonligini ta'minlashda, jamiyatning ilg'or shaxslari bo'lib kamol topishimizda albatta azaldan shakllangan oilaviy rasm-rusmlarning ham muhim o'rni beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar:

1. SH.Mirziyoyev. Inson huquqlari bo'yicha Osiyo forumi ishtirokchilariga murojaati.22.11.2018 Samarqand
- 2.M. Isxoqov "Avestoning Yashid kitobiga tarjimasi" \_T. 2004
- 3.Karimov I. A "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" T., Sharq, 1998
- 4.Avesto. O'zbekcha tarjima (Asqar Mahkam tarj.)- T. : 2001
- 5.Koshanova N. M "Xalqimiz hayotidagi Zardushtiylik ta'limoti bilan bog'liq an'analar va marosim//Tamaddun nuri. Beruniy - 2020
6. Qayumov : Qadimiyat obidalar. - T. :1971